

KASB-HUNAR TA'LIMIDA O'QITUVCHI VA ISHLAB CHIQARISH TA'LIMI USTASINING O'RNI

Angren shahar 2-sonli politexnikumi

o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari:

Israilov Furqat Saydumarovich

Angren shahar 2-sonli politexnikumi

kasbiy ta'lismi ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari:

Aliyev Ozod Akmalovich

Annotatsiya:

Mazkur maqolada kasb-hunar ta'lumi tizimida o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'lumi ustasining tutgan o'rni, ularning kasbiy mahorati, pedagogik yondashuvi hamda zamonaviy talablar asosida ta'lum sifatini oshirishdagi roli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar:

Kasb-hunar ta'lumi, o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'lumi ustasi, malaka, pedagogika, ta'lum sifati, amaliyat.

Asosiy qism:

Bugungi kunda kasb-hunar ta'lumi tizimida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'lumi ustasi asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilarining nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda ustozlarning mahorati, tajribasi va yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining vazifasi nafaqat dars o'tish, balki o'quvchiga kasbga bo'lgan mehrni uyg'otish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish, amaliy muammolarni hal eta oladigan mutaxassislarni yetishtirishdan iboratdir. Ishlab chiqarish ta'lumi ustasi esa

amaliy mashg'ulotlarda nazariy bilimlarni hayotiy tajriba bilan boyitadi. U o'quvchilarga hayotiy ish sharoitlarini, zamonaviy texnologiyalarni o'rgatadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ustozlarning kasbiy faoliyatini yanada samarali qiladi. Har ikki mutaxassis o'zaro hamkorlikda ishlashlari kerak, kasb-hunar ta'limi tizimida kichik malakali mutaxassislarni tayyorlash ko'p jihatdan kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustasining iqtidorlariga bog'liqdir.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida maxsus fan o'qituvchisi va ishlab chiqarish ta'limi ustasining malakalar tizimi yaratiladi, o'quvchilar ulardan olgan bilimlari asosida kerakli ishlab chiqarish tajribasiga, kasbiy mahoratga ega bo'ladilar. Shuning uchun kasb-hunar politexnimuklarida maxsus fan o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalari ishlab chiqarish jarayonining va o'z mehnat faoliyatining mazmunini aniq tashkillasagina ta'lim sifati yuqori darajada bo'ladi. Chunki o'quv jarayoni faqatgina bilim berishga asoslanib qolmasdan, balki ta'lim va tarbiya psixologiyasi bilan uzviy bog'langan. Bu esa ulardan psixologiya, kasbiy pedagogika, iqtisod asoslarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish asoslari bo'yicha ham malakalarga ega bo'lishini talab etadi. Mutaxassislik va pedagogik malakalar bilan bir qatorda maxsus fan o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarida shaxsiy va ijtimoiy layoqatlarning ham bo'lishi talab etiladi.

Kasb-hunar ta'limi samaradorligi — bu o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi uстасining uzviy hamkorligi, ularning doimiy o'z ustida ishlashi va yangilikka intilishi orqali ta'minlanadi. Yangi avlod kadrlarini yetishtirish uchun ustozlarning bilimli, fidoyi va malakali bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. Ismoilov Z. "Kasb-hunar ta'limi metodikasi" – Toshkent: O'qituvchi, 2021.

3. Nuraliev A. "Ishlab chiqarish ta'limi asoslari" – Namangan, 2022.
4. Pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami – 2023.